



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MARKAZIY OSIYODA TUTGAN
O'RNI

Ikromov Rahimjon Isroiljon o'g'li

Dabilov Yodgor Elmurod o'g'li

*Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiya universiteti "Xalqaro huquq" fakulteti 1-
bosqich 5- guruh talabalari*

Email: rahimikromov@gmail.com

Yodgordobilov9@gmail.com

Annontatsiya: Yangi tarixiy sharoitlarda vujudga kelayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar Markaziy Osiyo xalqlarining tarixi, kelib chiqishi, qo'shnichilik munosabatlariga har qachongidan boshqacharoq qarashni hayot taqozo eta boshladi. O'zbekiston tashqi siyosatining eng nuhim yo'nalishlaridan biri Markaziy Osiyo davlatlari bilan do'stlik, hamkorlik aloqalarini rivojlantirishga qaratilgan tashqi siyosatni amalga oshirish hisoblanadi. Mintaqadagi beshta davlat o'rtasida juda ham katta o'xshashliklar bor. Masalan, tariximiz, dinimiz, tilimizning birligidir. O'zbekiston Respublikasi o'ziga xos geografik tuzilishi bilan Markaziy Osiyo davlatlari orasida yaqqol ajralib turadi. O'tmishga nazar tashlasak, O'zbekiston Respublikasi hududidan Sharq va G'arb davlatlarini bog'lovchi Buyuk Ipak yo'lining o'tkanligi, bundan tashqari yurtimizda Mendeleyev davriy sistemasining barcha foydali qazilmalari mavjudligi so'zining yaqqol isbotidir.

Kalitso'zlar: Shartnomalar, chegaralar, hamkorliklar, suvresurslari, BMT, harakatli strategiyasi

Anonntation: The socio-political processes taking place in new historical conditions have begun to require a different approach to the history, origin, and neighborly relations of the peoples of Central Asia. One of the most important directions of Uzbekistan's foreign policy is the implementation of a foreign policy aimed at developing friendly and cooperative relations with the countries of Central Asia. There are many similarities between the five countries in the region. For example, our history, religion, and language are the same. The Republic of Uzbekistan stands out among the countries of Central Asia with its unique geographical structure. If we look back, the passage of the Great Silk Road connecting the countries of the East and the West through the territory of the Republic of Uzbekistan, in addition, the presence of all the minerals of the Mendelev periodic system in our country is a clear proof of my words.



Keywords: *Treaties, borders, partnerships, water resources, UN, action strategy*

Аннотация: *Социально-политические процессы, происходящие в новых исторических условиях, стали требовать иного подхода к истории, происхождению и добрососедским отношениям народов Центральной Азии. Одним из важнейших направлений внешней политики Узбекистана является реализация внешнеполитического курса, направленного на развитие дружественных и кооперативных отношений со странами Центральной Азии. Между пятью странами региона много общего. Например, у нас общая история, религия, язык. Республика Узбекистан выделяется среди стран Центральной Азии своей уникальной географической структурой. Если оглянуться назад, то прохождение Великого Шелкового пути, соединяющего страны Востока и Запада через территорию Республики Узбекистан, кроме того, наличие всех полезных ископаемых периодической системы Менделеева на территории нашей страны является наглядным доказательством моих слов.*

Ключевые слова: *Договоры, границы, партнерство, водные ресурсы, ООН, стратегия действий*



Markaziy Osiyoning qoq markazida joylashgan, eng yirik inson salohiyati hamda barcha mintaqa mamlakatlari bilan umumiy chegaraga ega yagona davlat – O‘zbekiston. 2016-yilgacha O‘zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari bilan chegaralar hududlar suv va gaz zaxiralari bo‘yicha tortishuvlar olib borish siyosatini olib bordi. Hattoki, bordi-keldi munosabatlari ham to‘xtab qolgan edi. Bu vaziyat hozirga kelib anchagina yumshatilgan bo‘lsada, hal qilinishi kerak bo‘lgan bir nechta masalalar bor.



O'zbekiston-Turkmaniston munosabatlari

Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston prezidenti sifatidagi ilk xorijiy tashrifini 2017 yil 6-7 mart kunlari Turkmanistonga amalga oshirgandi. Uchrashuvda transport sohasida zamonaviy infratuzilma yaratish bo'yicha hamkorlik davom ettirilishi bo'yicha kelishuvga erishilgandi. Bu hamkorlik Markaziy Osiyo, Yevropa va Yaqin Sharq transport tizimlarini birlashtirishi ko'zda tutilgan. Turkmaniston prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov 2018- yil 23-aprel kuni davlat tashrifi bilan O'zbekistonga keladi va o'zaro hamkorlikni rivojlantirish doir 17ta hujjat imzolanadi. Joriy yilning 29- aprel kuni ikki davlat rahbarlari Ashxobod shahrida yana uchrashuv o'tkazishdi. 'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi munosabatlar so'nggi yillarda izchil rivojlanib, ko'p qirrali hamkorlikning yangi bosqichiga o'tgan. 2022–2025 yillar davomida ikki davlat o'rtasidagi strategik sheriklik mustahkamlanib, savdo, iqtisodiyot, transport, energetika, qishloq xo'jaligi va madaniy sohalarda sezilarli yutuqlarga erishildi.

2022 yil 14 iyulda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov Toshkentda uchrashib, ikki mamlakat o'rtasida ko'p qirrali hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan 19 ta hujjatni imzoladilar. Ushbu hujjatlar qatorida transport-tranzit, turizm, suv resurslarini boshqarish, ilmiy-texnik hamkorlik, savdo-iqtisodiy va sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish dasturlari mavjud.

Shuningdek, ikki davlat o'rtasida siyosiy muloqot, parlamentlararo aloqalar, madaniy-gumanitar almashinuvni faollashtirishga qaratilgan amaliy harakatlar rejasi tasdiqlandi. O'zbekiston-Turkmaniston chegaraoldi savdo zonasi – Savdo markazini tashkil etish va faoliyatini tartibga solish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi. 2022 yil oktyabr oyida O'zbekiston va Turkmaniston Prezidentlari Ashxobodda uchrashib, ikki mamlakat o'rtasida Strategik sheriklikni chuqurlashtirish to'g'risidagi deklaratsiyani imzoladilar. Ushbu deklaratsiya ikki tomonlama hamkorlikni yangi bosqichga ko'tarib, savdo-iqtisodiy, energetika, transport, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarda ko'plab hujjatlar imzolandi. 2025 yil yanvarida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkmaniston tashqi ishlar vaziri Rashid Meredov Toshkentda uchrashib, ikki tomonlama savdo hajmining 2024 yilda 1,1 milliard AQSh dollaridan oshganini ta'kidladilar.

O'zbekiston-Qozog'iston munosabatlari

1992-yildan boshlangan bo'lib, do'stlik, strategik sheriklik to'g'risida bir nechta shartnomalar tuzilgan. 2016- yilga kelib esa vaziyat tubdan o'zgardi. Jumladan: dastlab Shavkat Mirziyoyev 2017 yilning 22-23 mart kunlari davlat tashrifi bilan Qozog'istonda bo'lgandi. Muzokaralar yakunida davlatlararo,





hukumatlararo va idoralararo 13 hujjat imzolanadi. M-39 avtomobil yo'lida joylashgan va 2006 yilda yopib qo'yilgan «Oq oltin» va «Malik» avtomobil o'tkazish punktlari qayta ochiladi.

Qozog'iston Respublikasining hozirgi prezidenti Qosim-Jo'mart To'qayev 2019 yilning 14-15 aprel kunlari davlat tashrifi bilan O'zbekistonda bo'lgandi. Uchrashuvda ikki tomonlama savdo aylanmasi hajmini yaqin kelajakda 5 mlrd dollarga yetkazishdan har ikkala tomon manfaatdor ekanligi ta'kidlanadi.

O'tgan davr mobaynida Sirdaryo va Jizzax viloyatlari hamda Qozog'istonning Turkiston viloyati chegaralari tutashgan uchastkalarda davlatlararo chegarani demarkatsiyalash bo'yicha bir nechta muzokaralar o'tkazildi. 2020 yil yakunlari bo'yicha ikki tomonlama tashqi savdo aylanmasi 3 mlrd dollardan oshdi.

O'zbekiston-Tojikiston munosabatlari

O'tgan yillarda O'zbekiston-Tojikiston aloqalaridagi ko'p yillar davomida go'yoki yechimi bo'lmagan, murakkab va nozik hisoblangan chegara va suv-energetika sohasidagi masalalar ham o'z yechimini topdi. Bu o'zgarishlarning barchasi oddiy fuqarolar hayotida sezilmoqda. Ko'p yillar davomida birinchi marta ular o'z qarindoshlari va do'stlarinikiga to'siqsiz, erkin tashrif buyurish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Hozir O'zbekiston-Tojikiston chegarasidan har kuni 20 mingga yaqin kishi o'tadi. 3-4 yil oldin esa bu ko'rsatkich bor-yo'g'i 3-3,5 mingni tashkil qilar edi.

2018 yilda ikki tomonlama munosabatlar tarixida birinchi marta o'zaro davlat tashriflari bo'lib o'tdi. Umuman olganda, 2016 yil sentabr oyidan boshlab O'zbekiston va Tojikiston rahbarlari turli sammitlar doirasida taxminan 15 martadan ortiq uchrashishdi.

Ikki davlat rahbarlarining oxirgi uchrashuvi 10 iyun kuni Dushanbeda bo'lib o'tdi. Uchrashuvda Zarafshon daryosida GES qurish loyihasi bo'yicha qo'shma aksiyadorlik jamiyati tashkil etish to'g'risida hamda yuklar tranziti to'g'risidagi bir qancha bitimlar imzolandi.

O'zbekiston-Qirg'iziston munosabatlari

O'zbekiston va Qirg'iziston munosabatlarida so'nggi 10 yil davomida ilk bor chegara masalarida ijobiy natijalarga erishildi. Qirg'iziston prezidenti Sadir Japarov mamlakat yetakchisi sifatida ish boshlagach, uchinchi davlat tashrifini O'zbekistonga amalga oshirdi. Bungacha Japarov Qozog'iston va Rossiyaga borgandi. Tashrif doirasida ko'p qirrali O'zbekiston—Qirg'iziston sherikligining deyarli barcha yo'nalishlarini qamrab olgan 22ta hujjat imzolandi. Ikki davlat o'rtasida eng nozik nuqtalardan biri bo'lgan chegaradagi muammolar yaqin kelajakda hal qilinishi ta'kidlandi. Bojxona boshqaruvi sohasida bojxona to'lovlari stavkalari ikki barobarga kamaytirildi, 3 ming 550 ta mahsulot nomlariga va 1 ming 122 turdagi mahsulotlarga



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



aksiz solig'iga import bo'jlarining nol stavkalari qo'llana boshlandi. 2016-2020 yillarda barcha manbalar hisobidan asosiy kapitalga jami 89 mlrd dollarlik investitsiya kiritildi, ulardan 19,5 mlrd dollari to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlardir. Shuningdek, 2016-2020 yillarda respublikaning umumiy eksporti 72,5 mlrd dollarni tashkil etdi, shundan 2020 yilda 15,1 mlrd dollarlik mahsulotlar eksport qilindi, bu esa 2016 yilga nisbatan 25 foizga ko'pdir.

Xulosa qilib aytqanda, o'tgan yillar davomidagi ko'plab bir qancha ijobiy o'zgarishlardan keyin yaqin kelajakda ham mintaqa davlatlari o'rtasida iqtisodiy aloqalarning va integratsiya jarayonlarining kuchayishi, Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_%E2%80%94_Turkmaniston_munosabatlari

https://mbaza.uz/anywork/ozbekistonning-markaziy-osiyo-davlatlari-bilan-har-tomonlama-hamkorligi/#google_vignette

https://mbaza.uz/anywork/ozbekistonning-markaziy-osiyo-davlatlari-bilan-har-tomonlama-hamkorligi/#google_vignette

